



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 454 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
Shermatova Yakut Sabirovna	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
Turdiyeva Zilola Jalilovna	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
Xalikova Umida Mirovna	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
Kushakova Gulnora Egamkulovna	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
Normurodova Gulnora Ikromovna	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
Ziyayev Adxamjon	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
Teshaboyeva Feruza Raximovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
Ashirova Sojida Baxromovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	
Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	229
Zikriyayev Zokir Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish.....	232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina	
Professional kompetentlik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi	235
Artikova Nodira Shavkat qizi	
Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi.....	240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik	245
Bekchanova Kuvanch Roximovna	
Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich	
2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar	254
Sadikova Umida Botirovna	
Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediyaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati	258
Raximova Faridabonu Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola).....	261
Raximova Mushtariy Alisher qizi	
Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish	264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi.....	272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari	276
Teshabayeva Oyguil Fazliddinovna	
Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri	280
M. R. Sultonova	
Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar	284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor	



Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir	287
Erkayev Elmirza Temirovich	
10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi.....	294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich	
Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari	298
Yaqubov Arslon Maxmudovich	
Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi	301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish	306
Shaxayev Bauirjan Seytgalievich	
Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	310
Ahmedova Zuhraxon Mamurovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati	314
Mirzabayeve Zebo Umarovna	
Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi	317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich	
Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish ..	323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi	327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna	
XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi	332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi	
Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish.....	336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich	
STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.....	341
Choriyor Maxmatraimov Eshmatovich	
Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish	345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	
Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida).....	348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna	
O'zbek tili – faxrim, g'ururim	351
H. Shukurova, M.Jumanazarova	
Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni.....	355
M. Kuzibayeve	
Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li	
Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli.....	362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida	367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari	377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov	
Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli.....	383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li	
Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya	387
Tursunova Nilufar Samiyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	393
Tursunova Saidra Isakovna	
Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni	396
Pirlijeva Gulmira Botir qizi	
Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari.....	400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish	405
Sadirova Kamola Giyozovna	
Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.....	409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari.	413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich	
О развитии учебно-познавательной деятельности студентов	418
М. Халикова	
Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование	421
С. Ю. Нишанов	
Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку.....	425
Утешова Зернегул Хурметуллаевна	
Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari	429
N. Mirbabayeva	
O'smir shaxsining rivojlanishi	433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni	435
N. M. Qodirova	
Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation.....	439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich	
Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi	
Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation.....	446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich	
Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик.....	449
Байметов М. М.	



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY FAOLIYATI VA UNING O'RGANILISHI

UDK: 821.512.133

Dinora Eshboyeva Alisher qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0001-6619-7788

Ilmiy rahbar: N. A. Xakimova

Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning turkiy xalqlar mustaqilligi yo'lida olib borgan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, uning yosh avlodni ilm-ma'rifatga yo'naltirish borasidagi xizmatlari hamda bu jarayondagi ilmiy va publitsistik faoliyati yoritib beriladi. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va publitsistik merosining O'zbekiston hamda xalqaro miqyosda o'rganilish darajasi ilmiy-tahliliy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda sovet davri va mustaqillik yillaridagi tarixshunoslik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, Behbudiy merosining milliy uyg'onish jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, tarixshunoslik, matbuot, islohotlar.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the socio-political and educational activities of Mahmudkhoja Behbudi, one of the prominent representatives of the Jadid movement, in his efforts toward the independence of Turkic peoples. Particular attention is paid to his contributions to promoting education among the younger generation, as well as his academic and journalistic endeavors in this field. In addition, the study examines the socio-political, educational, and journalistic legacy of Mahmudkhoja Behbudi and analyzes its academic interpretation both in Uzbekistan and at the international level. The research offers a comparative analysis of historiographical approaches from the Soviet period and the years of independence, substantiating the significance of Behbudi's legacy in the process of national awakening.

Key words: Mahmudkhoja Behbudi, Jadid movement, national awakening, enlightenment, historiography, press, reforms.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируется общественно-политическая и просветительская деятельность одного из видных представителей джадидского движения – Махмудходжи Бехбуди, направленная на достижение независимости тюркских народов. Особое внимание уделяется его вкладу в развитие образования среди молодёжи, а также его научной и публицистической деятельности. Кроме того, рассматривается степень изученности социально-политического, просветительского и публицистического наследия Махмудходжи Бехбуди в Узбекистане и на международном уровне. В исследовании проводится сравнительный анализ историографических подходов советского периода и лет независимости, обосновывается значение наследия Бехбуди в процессе национального возрождения.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидское движение, национальное возрождение, просветительство, историография, печать, реформы.

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar milliy uyg'onish harakatining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayonda jadidchilik harakati va uning yetakchi namoyandalari muhim o'rin egalladi. Jadidlar jamiyatni isloh qilishda ta'lim, matbuot va ma'naviyatni asosiy vosita sifatida ko'rdilar. Ana shunday tarixiy sharoitda Mahmudxo'ja Behbudiy yirik ma'rifatparvar, publitsist va jamoat arbobi sifatida maydonga chiqdi.



Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarning ta'lim olishi, ma'naviyatli va ma'rifatli inson bo'lib shakllanishi hamda jamiyatga xizmat qilishlari tarafdori edi. U jamiyatni jaholatdan chiqarishning yagona yo'li faqat ma'rifat ekanini ta'kidlab kelgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning bunday ma'rifatparvar g'oyalari sovet davrida hukumat tomonidan ijobiy qabul qilinmadi. Natijada u shafqatsizlarcha o'ldirilib, ilmiy merosi yo'q qilishga urunildi. Behbudiy vafotidan so'ng uning ilmiy faoliyatini o'rganish va merosini yoshlarga yetkazish yo'lida ko'plab olimlar harakat qildilar, biroq bu jarayon sovet hokimiyatining tazyiqlariga duch keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsi va uning ilmiy merosiga katta e'tibor qaratildi hamda xotirasi abadiylashtirildi. Bugungi kunda Behbudiy faoliyati nafaqat O'zbekiston tarix-shunosligida, balki xalqaro miqyosda ham keng qamrovda o'rganilmoqda. Ushbu tadqiqotda Behbudiy merosiga turli davrlarda berilgan baholar, ularning mafkuraviy va ilmiy jihatlari aniqlanib, qiyosiy tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand viloyatida tug'ilgan. U dastlab an'anaviy maktab va madrasada tahsil olib, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarga ham qiziqish bildirgan. Yoshligidanoq zamon talablari va musulmon jamiyatining orqada qolish sabablarini anglashga intilgan Behbudiy o'z bilim doirasini kengaytirishga harakat qilgan. Behbudiyning Istanbul, Qohira va Makka shaharlariga qilgan safarlari uning dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu safarlar davomida u zamonaviy ta'lim tizimi, matbuot erkinligi va jamiyatni isloh qilish masalalari bilan yaqindan tanishdi. Natijada Behbudiy jadidchilik g'oyalarining faol targ'ibotchisiga aylandi.

Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri ma'rifiy va pedagogik faoliyatdir. U eski usul ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotganini anglab, yangi usul maktablarini tashkil etish tarafdori bo'ldi. Shu bois haj safaridan qaytgach, Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabamin va Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Biroq Shakuriy maktabi 1908-yilda Behbudiy tomonidan Samarqanddagi o'z hovlisiga ko'chirib keltiriladi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903–04), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi hamda yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi¹.

Behbudiyning fikricha, ta'lim isloh qilinmas ekan, millat taraqqiy etishi mumkin emas edi. U tomonidan yaratilgan asarlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar jadid maktablarida keng qo'llanildi. Shunday asarlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar qatoriga "Tarixi islom" (1909), "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar xati", 1908), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Amaliyoti islom" (1908), "Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") kabi asarlarni ko'rish mumkin². Ushbu asarlarda geografiya, tarix va jamiyatshunoslikka oid bilimlar sodda va tushunarli tilda bayon etilgan bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan.

Behbudiy Turkistonda milliy matbuot rivojiga ham beqiyos hissa qo'shgan. U "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalining tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, ushbu nashrlar orqali jamiyatda siyosiy va ijtimoiy ongni shakllantirishga intildi. Behbudiyning publitsistik maqolalarida milliy birlik, ma'rifat, adolat va taraqqiyot masalalari ilgari surildi. U matbuotni xalqni uyg'otuvchi kuch sifatida baholab, uni jamiyat islohotining muhim vositasi deb hisoblagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek dramaturgiyasi tarixida ham muhim o'rin egallaydi. Uning "Padarkush" dramasi ijtimoiy muammolarni ochib bergan ilk sahna asarlaridan biri hisoblanadi. Asarda jaholat, nodonlik va ma'naviy tanazzul oqibatlarini fojiali tarzda tasvirlangan. Mazkur drama orqali Behbudiy xalqni ilm-ma'rifatga chorlab, tarbiyasiz jamiyatning fojeali oqibatlarini ko'rsatib berdi. Asar jadid adabiyotining muhim namunasi sifatida baholanadi. Ushbu drama hozirgi davr uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, unda johil, nodon va o'qimagan farzandning o'z otasining qotiliga aylanishi ochiq tasvirlangan. Asar shu jihatdan ham yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki farzandlari johil bo'lgan yurtning kelajagi tanazzulga yuz tutishga mahkum.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishiga doir ma'lumotlar tarixiy-manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy hamda tizimli yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida Behbudiyning asarlari, publitsistik maqolalari, zamondoshlari xotiralari, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida tanlab olindi. Ma'lumotlarni yig'ishda arxiv hujjatlari, matbuot materiallari,

1 Begali Qosimov. Mahmudxo'ja behbudiy hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015 yil 3 son.

2 Eshboyeva D. Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining ahamiyati // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – B. 84.



monografiyalar va ilmiy maqolalardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar tarixiy izchillik tamoyili asosida tahlil qilinib, turli davrlarda Behbudiy merosiga berilgan baholar qiyoslandi. Shuningdek, sovet mafkuraviy yondashuvi va mustaqillik davridagi xolis ilmiy qarashlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning sabab va oqibatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari umimlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari orqali ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlar uchun qilgan bunday sa'y-harakatlari, ularni ilm olishga undagan ma'naviy va ma'rifiy g'oyalari mustabid sovet hukumati tomonidan xushlanmadi. Shu sababli dastlab uning faoliyatiga to'siqlar boshlandi. So'ng bu to'siqlar ish bermagach, Behbudiyga nisbatan tazyiqlar ko'paya boshladi. Natijada sovet hukumati tomonidan Behbudiy o'ldirildi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1919-yili vafot etadi, ammo ushbu xabar Turkiston o'lkasiga bir yil o'tgach, ya'ni 1920-yilda ayon bo'ladi. 1921-yilda esa uning o'limi rasmiy e'lon qilinadi³.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ayrim tadqiqotlarda Behbudiy ma'rifatparvar sifatida qisman e'tirof etila boshladi. Biroq uning siyosiy va ijtimoiy qarashlari to'liq yoritilmadi. XX asrning 20-yillarida Hoji Muin Shukrullo o'g'li, Sadriddin Ayniy, Laziz Azizzoda singari zamondoshlari tomonidan Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida bir qancha maqolalar yozilgan. Alloma hayoti va faoliyatini yoritishda 1922–23-yillarda Hoji Muin muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" hamda "Zarafshon" (1923) gazetalarida e'lon qilingan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Sadriddin Ayniyning Behbudiyni "Oliyshon ustod" hamda "Turon dohiysi" kabi nomlar bilan ataganligi, Behbudiyning vafotidan ko'p o'tmay uning faoliyati ulug'langanligi hamda o'rganilganligini ko'rsatadi⁴.

1977-yilda "Saylanma" asarlari chop etilgan. Ammo sovet hokimiyati yillarida jadidchilik harakatiga mafkuraviy yondashuv ustun bo'ldi. Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati biryozlama talqin qilinib, u "millatchi" va "burjua mafkurasini vakili" sifatida baholandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlar merosini o'rganishda tub burilish yuz berdi. Mahmudxo'ja Behbudiy milliy uyg'onish harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida tan olindi. Bu borada Begali Qosimovning salmoqli ilmiy tadqiqotlari katta ahamiyatga ega. 1992-yilda "Ismoilbek Gaspirali", 1994-yilda "Maslakh-doshlar" (Behbudiy, Ajziy, Fitrat), 1997-yilda (1-nashr) "Behbudiy. Tanlangan asarlar" (1999-yilda 2-nashr) asarlari nashr ettiriladi. Begali Qosimovning adabiyotshunoslik sohasida ham ko'plab tadqiqotlari bor, ammo olim o'zini jadidshunos deb hisoblardi. Jadidshunoslik borasida amalga oshirgan tadqiqotlarining o'zi alohida bir tadqiqotni talab qiladi. Olim jadidlarning milliy uyg'onish borasidagi qarashlariga alohida e'tibor berardi.

Ulug'bek Dolimov ham Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyatiga katta e'tibor berib, bu borada bir qancha tadqiqot ishlarini olib boradi. O'z tadqiqotlaridan xulosa qilgan Ulug'bek Dolimov Behbudiy shaxsiyati haqida quyidagicha yozadi: "Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma'nodagi asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiydir". Ulug'bek Dolimov tomonidan 2010-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalida "Jadidchilikning tamal toshi" maqolasi nashr ettiriladi⁵.

Sirojiddin Ahmedovning ilmiy ishlarida Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy, publitsistik, ma'rifiy, ma'naviy g'oyalari chuqur qiyosiy tahlil qilinadi. U o'z izlanishlari orqali Behbudiyning tavallud topgan sanasi va joyini aniqlab, 1874-yil 30-yanvar (payshanba kuni) Samarqand shahri Yomini mahallasida tavallud topganini yozadi. Ammo Behbudiyga zamondosh olim Hoji Muin uning tavallud topgan joyi va sanasini quyidagicha keltiradi: 1875-yil 19-yanvar (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga keladi. Begali Qosimov ham yuqorida Hoji Muin keltirgan faktni qayd etadi. Shuningdek, Sirojiddin Ahmedov o'z fikrini kuchli dalillar asosida isbotlaydi⁶. U tadqiqotlarida barcha muhim ma'lumotlarni aniq va xolis dalillar asosida beradi; bu va boshqa jihatlar ham Behbudiyning faoliyatini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Naim Karimov tomonidan ham Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy faoliyati chuqur o'rganilib, allomaning hayoti va ijodiga oid 50 dan ziyod ilmiy va ommaviy maqolalar muallifi ekani qayd etiladi. Shuningdek, olimning 2023-yilda "Mahmudxo'ja Behbudiy" monografiyasi nashr ettirilgan. Behbudiy hayoti va faoliyatini yoritishda keyinchalik Ahmad Aliyev, Solih Qosimov, Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmedov, Ulug'bek Dolimov, Bahodir Karimov, Shuhrat Rizayev, Nurboy Jabborov, Zaynobiddin Abdirashidov kabi ko'plab jadidshunos olimlar izlanish olib borgan.

3 Eshboyeva D. Behbudiyning sirli o'limi // Golden brain. 2023. – B. 31.

4 Ibrohim G'afurov „Mahmudxo'ja Behbudiy haqida ikki badia“. kh-davron.uz.

5 Eshboyeva D. Mustaqillik davrida Mahmudxo'ja Behbudiyga ko'rsatilgan e'tibor // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. 2023. - B. 89.

6 Eshboyeva D. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o'rganilishi // "Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari" ilmiy konferensiya – T.: Rishton XTB, 2023. – B. 218.



2002-yilda rejissyor Baqo Sodiqov Behbudiy haqida film suratga olishni boshlagan⁷, keyinchalik bu ish to'xtatilgan. 2020-yilda suratga olish ishlari qayta tiklandi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan premyera o'sha yilning 8-dekabrida bo'lib o'tgan. Uning asarlari qayta nashr etildi, ilmiy konferensiyalar tashkil qilindi va ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Mustaqillik yillarida Behbudiy faoliyati xolis va ilmiy asosda baholanib, uning millat taraqqiyotidagi o'rni yanada aniqroq belgilab berildi.

Turkiston jadidlarining ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini o'rganish, ularni bugungi yoshlarga yetkazish hamda ularning ilmiy merosini saqlab qolish maqsadida 2023-yilda "Jadid" gazetasi ta'sis etish g'oyasi ilgari surildi. 2024-yildan boshlab gazetaning ilk nashri yo'lga qo'yildi. "Jadid" gazetasining bosh muharriri O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzodir⁸.

2025-yilning 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan⁹. Qarorga ko'ra, 2025-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-ma'rifiy xotira kechasi tashkil etilishi belgilandi. Shuningdek, ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zR FA Milliy arxeologiya markazi bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimovanning "Mahmudxo'ja Behbudiy. Millat ehtiyojiga baxshida umr" risolasi nashr etildi. Risolada Behbudiyning faoliyati xolis va batafsil tadqiq etilib, uning shaxsiga faqat tarixiy siymo sifatida emas, balki o'z davrining og'riqlarini chuqur his qilgan, millat kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan fidoyi ziyoli sifatida baho beriladi.

Xalqaro miqyosda ham Behbudiyning faoliyati samarali o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, Turkiyada allo-maning asarlari, ilmiy maqolalari, ma'rifiy g'oyalari tadqiq etilib, bu borada ko'plab ilmiy konferensiyalar tashkil etilmoqda. 2021-yilda Turkiyaning TRT Avaz telekanali "Köklerin İzinde" turkumi ostida turkiy dunyo ziyolilarining hayoti va faoliyati yoritilgan filmlar suratga olgan. Filmning 17-qismi allomaga bag'ishlanib, "Mahmud Hoca Behbudi" deb nomlangan¹⁰. 2025-yilda Turkiya poytaxti Anqarada "Mahmudxo'ja Behbudiy merosining turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.

Germaniyadagi Humbolt universiteti professori, turkshunos olim Ingeborg Baldauf jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatini chuqur ilmiy asosda o'rgangan xorijiy tadqiqotchilardan biridir. Baldauf Behbudiy faoliyatini alohida shaxs sifatida emas, balki Turkiston jadidchilik harakati, islomiy modernizm, milliy uyg'onish jarayoni, matbuot va ma'rifat islohotlari kontekstida tahlil qiladi. U Behbudiyini diniy islohotchi, ma'rifatparvar, milliy ongni uyg'otuvchi ziyoli, siyosiy tafakkur sohibi sifatida baholaydi. Ingeborg Baldauf Behbudiyning haj safariga oid kundaliklarini nemis tiliga tarjima qilish bilan shug'ullangan. Ingeborg Baldaufning "Mahmudxo'ja Behbudiy – Falastinda" nomli maqolasi nashr ettirildi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyati amerikalik olimlarning ham nigohidan chetda qolmadi. Ayniqsa, bu borada Adib Xolidning qiyosiy-tahliliy tadqiqotlari samaralidir. Adib Xolidning yangi izlanishlari natijalari aks etgan 2015-yilda chop qilingan "Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR" asarida ham Mahmudxo'ja Behbudiy to'g'risida muhim ma'lumotlar uchraydi. Uning o'limi to'g'risida so'z yuritir ekan, A. Xolid bu hol hanuzgacha sirlicha qolayotganini aytadi, bu boradagi N. Karimov qarashlarini ham ishonchsiz deb baholaydi¹¹. Chunki Adib Xolid bu borada aniq va ishonchli ma'lumotlar hali ham bizgacha yetib kelmaganini asos qilib oladi. O'z tadqiqotlarida "Behbudiyning hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining eng ko'zga ko'ringan siymosi bo'lganligi bilan alohida ahamiyatga ega. U davrining yirik shaxsi bo'lib, dunyoni o'zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan farqli ravishda anglay olgan hamda u vaqtda ularning tasavvuriga sig'maydigan aloqa va tashkiliy shakllardan foydalana olgan"¹², deb yozadi Adib Xolid.

Behbudiy faoliyati haqida tadqiqotlar olib borgan yana bir amerikalik olim Edvard Olvort bo'lib, dastlab u o'z tadqiqotlarida Behbudiyga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi. U Behbudiy haqida yozilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar, uning xotirasini abadiylashtirish yo'lida qilingan ishlarni qattiq tanqid qiladi. Ammo uning keyinchalik nashr qilingan "Modern Uzbeks"¹³ asarida ham Behbudiyning dunyoviy bilimlarni egallashga nisbatan ijobiy munosabatini ko'rsatadi: u madrasada o'qishni tamomlagach oila qurgani, zamon bilan hamnafas yashash maqsadida keyinchalik o'g'lini rus tili va boshqa muhim fanlarni o'rganishi uchun rus-tuzem maktabida o'qitganini aytadi.

7 18 yil "zapret"da bo'lgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" filmi premyerasi o'tkazildi - Xalq so'zi

8 <https://jadid.uz/biz-haqimizda/>

9 <https://lex.uz/uz/docs/-7287373>

10 Köklerin İzinde 17. Bölüm (Mahmud Hoca Behbudi) - YouTube

11 Khalid A. Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR. Cornell university press. 2015. –P.81.

12 Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.

13 Allworth E. The modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. Stanford, California. 1990.



Bugungi globallashuv sharoitida Mahmudxo'ja Behbudiyning ilm-ma'rifat, vatanparvarlik va islohot haqidagi g'oyalari o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning merosi yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, tanqidiy fikrlash va ma'naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahmudxo'ja Behbudi jadidchilik harakatining eng yirik va serqirra namoyandalardan biri sifatida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasagan tarixiy shaxsdir. Uning faoliyati ma'rifatparvarlik, matbuotchilik, dramaturgiya, siyosiy fikr va milliy uyg'onish g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirish va milliy o'zlikni anglash sari yetaklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Behbudi yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va matbuot orqali jamiyat ongini shakllantirish orqali yosh avlodni zamonaviy bilim olishga da'vat etdi. Uning publitsistik va dramaturgik merosi milliy tafakkur, ijtimoiy tanqid hamda ma'naviy islohot g'oyalarini ilgari surdi.

Mahmudxo'ja Behbudi faoliyatining O'zbekistonda o'rganilishi murakkab va bosqichma-bosqich kechgan tarixiy jarayondir. Turli davrlarda uning merosiga berilgan baholar mafkuraviy omillarga bog'liq bo'lgan. Sovet davrida Behbudi vafotidan so'ng tazyiqlar kuchli bo'lishiga qaramay, unga zamondosh olimlar tomonidan ilmiy faoliyati o'rganilib, yoshlarga yetkazilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach esa allomaga katta e'tibor qaratilib, uning millat uchun qilgan xizmatlari chuqur tadqiq etildi hamda allomaning ilmiy faoliyati haqida aniq va xolisona ma'lumotlar yoshlarga yetkazildi. Uning o'limiga doir barcha haqiqatlar ochib berildi. Behbudiyning turkiy xalqlar uchun qilgan mehnatlari zoye ketmadi. Turkiy xalqlar mustaqillikka erishishi uchun iqtisodiy va siyosiy sohalar kabi zamonaning muhim ilmlarini egallashi, shuningdek, ilg'or xalqlarning tillarini o'rganishi zarurligi haqidagi qarashlari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bugungi kunda Behbudi milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik harakatining yorqin timsoli sifatida e'tirof etilmoqda. Uning ilmiy va ijodiy merosini chuqur o'rganish zamonaviy tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begali Qosimov. Mahmudxo'ja Behbudi hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015-yil, 3-son.
2. Eshboyeva D. Mahmudxo'ja Behbudi asarlarining ahamiyati // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – 84 b.
3. Eshboyeva D. Behbudiyning sirli o'limi // Golden Brain. – 2023. – 31 b.
4. Ibrohim G'afurov. Mahmudxo'ja Behbudi haqida ikki badia. – kh-davron.uz.
5. Eshboyeva D. Mustaqillik davrida Mahmudxo'ja Behbudiya ko'rsatilgan e'tibor // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – 89 b.
6. Eshboyeva D. Mahmudxo'ja Behbudi hayoti va faoliyatining o'rganilishi // "Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari" mavzusidagi ilmiy konferensiya. – Toshkent: Rishton XTB, 2023. – 218 b.
7. 18 yil "Zapret"da bo'lgan "Mahmudxo'ja Behbudi" filmi premyerasi o'tkazildi // Xalq so'zi.
8. <https://jadid.uz/biz-haqimizda/>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-7287373>
10. Köklerin İzinde. 17-bölüm (Mahmud Hoca Behbudi). – YouTube.
11. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire and Revolution in the Early USSR. Cornell University Press, 2015. – P. 81.
12. Zaynobiddin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
13. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford, California, 1990.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.